

PSIXOLOG FAOLIYATINING ETIK MUAMMOSI, KASBIY ME'YORLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Jumanova Shaxlo Amirovna

Toshkent shahar Sergeli tumani 68-sonli maktab amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolog faoliyatining etik muammosi, kasbiy me'yorlarning o'ziga xosligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Psixolog shaxsining axloqiy jihatlari va me'yorlari haqida so'z boradi. Psixologik xizmatni tashkil etish uchun amaliyotchi psixologdan talab etiladigan jihatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: etika, psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya.

KIRISH:

Psixolog - bu psixologiya bilan shug'ullanadigan va ruhiy holatlarni, idrok etish, kognitiv , hissiy va ijtimoiy jarayonlar va xatti-harakatlarni o'rGANADIGAN kasb egasi . Ularning ishi ko'pincha odamlarning bir-biriga va atrof-muhitga qanday munosabatda bo'lishini tajriba, kuzatish va talqin qilishni o'z ichiga oladi.

Psixologlar odatda psixologiya bo'yicha bakalavr darajasini, keyin esa psixologiya bo'yicha magistr yoki doktorlik darajasini oladilar. Psixiatriya shifokorlari va psixiatriya hamshiralaridan farqli o'laroq, psixologlar odatda dori- darmonlarni yoza olmaydilar, ammo yurisdiktsiyaga qarab, qo'shimcha tayyorgarlikka ega bo'lgan ba'zi psixologlar dori-darmonlarni buyurish uchun litsenziyaga ega bo'lishi mumkin; malaka talablari bakalavr va magistr darjasidan farq qilishi mumkin.Psixologlar psixologik test, baholash, sharplash va hisobot berish bo'yicha keng qamrovli treninglardan o'tadilar, psixiatrlar odatda psixologik testlar bo'yicha o'qitilmaydi. Psixologlar, shuningdek, tashvish, ruhiy tushkunlik, travmadan keyingi stress, shizofreniya, ruhiyatdagi buzilishlar, shaxsiyatning buzilishi va ovqatlanish buzilishlarini oldini olish uchun, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, ko'plab ruhiy kasalliklarning alomatlarini aniqlash uchun bir yoki bir nechta psixoterapiya bo'yicha o'qitaladi. Psixologlar bilan ishlash individual yoki guruhlarda

bo‘lishi mumkin. Kognitiv xulq-atvor terapiyasi psixologlar tomonidan qo‘llaniladigan tez-tez ishlatiladigan va yuqori samarali psixoterapiya usulidir. Psixologlar maktablar, qamoqxonalar, xususiy klinika, ish joyi yoki sport jamoasi kabi turli muassasalarda faoliyat yuritishadi.

Amaliyotchi psixologiya inson va hayvonlarning xatti-harakatlaridagi muammolarni hal qilish uchun nazariy bilimlarni qo‘llaydi. Amaliy sohalarga klinik psixologiya, maslahat psixologiyasi, sport psixologiyasi, sud psixologiyasi, sanoat va tashkiliy psixologiya, salomatlik psixologiyasi va maktab psixologiyasi kiradi.

Amaliyotchi psixolog statusiga ega bo‘lishni istagan insonga bir qator talablar qo‘yiladi ularning birinchisi u oliv ma’lumotli psixolog bo‘lishi zarur. Bunday diplom oliv o‘quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan xabardor bo‘lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. Amaliyotchi psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan habardor bo‘lishi lozim. Amaliyotchi psixolog albatta hamma sohalarda ishlaydi. Amaliyotchi psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo‘ladi va shu bilan birga u hammaga hamdard bo‘la oladigan inson bo‘lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotgan albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta’minlashi zarur bo‘ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlash vaqtida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

Amaliyotchi psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o‘ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo‘ladi. U o‘zida ishonch uyg‘ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza olishi zarur bo‘ladi. Demak bo‘lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o‘z ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta

shirin momalada bo‘lishi talab qilinadi. Ularning axloqiy jihatlari quydagilarni hisobga olishi kerak:

1. Professional faoliyatda amaliy psixolog albatta hamma uchun mas’uliyatli bo‘lishi zarur.
2. Amaliyotchi psixolog o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozim, u atrofdagilarning so‘zlariga qarab o‘zgarmasligi zarur.
3. Psixologning vazifasi mustaqil va avtonom tarkibga ega, u hech kimga bo‘ysunmaydi. Uning psixologik nuqtai nazaragini qarori yakuniy natijaga ega bo‘lishi zarur.
4. Psixologning qarorini inkor qilish huquqiga faqat maxsus komissiya ega ular yuqori malakali mutaxassislar hisoblanib ularga bunday huquqlar berilgan.
5. Psixolog haqqoniy va samimiy bo‘lishi zarur.
6. Unda kasbiy mas’uliyat hissi bo‘lishi lozim.
7. Psixolog himoyachi sifatida ham ishtirok etishi mumkin, u o‘z mijozlarining psixologik holatlarini himoya qiladi.
8. U psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirayotgan vaqtida ehtiyyotkor bo‘lishi zarur.
9. Agar psixolog mijozining haq- huquqlar poymol qilinayotgan bo‘lsa, u buni yuqori tashkilotlarga yetkazish imkoniyatiga egadir.
10. U siyosiy g‘oyalardan, ijtimoiy g‘oyalardan, falsafiy fikrlardan xoli bo‘lishi zarur.
11. Amaliyotchi psixolog psixodiagnostik, psixokorreksion, psixterapevtik natijalarni mutaxassis bo‘lmaganlarga ko‘rsatish huquqiga ega emas.
12. U insonlarga zarar ko‘rsatadigan holatlardan uzoqroq bo‘lishi talab qilinadi.
13. Psixolog o‘zining qila olmaydigan ishlari haqida mijozga va’da bermasligi kerak.
14. Psixolog ota-onaga, yoki yuqori mansabdagi insonlarga mijozni haqida tafsilotlarni bermasligi zarur.
15. U o‘rganilmagan metodikalarni mijozlarida qo‘llash huquqididan mahrumdir.

16. Psixolog albatta sir saqlashni bilishi zarur, u mijozining sirini xech kimga aytmasligi zarur.
17. Psixologik maslahatda albatta o‘z me’yorlariga amal qilishi talab qilinadi.
18. Agar psixolog shu me’yorlarni buzsa albatta uning hatti-harakatlari amaliy psixologlar kollegiyasida ko‘rib chiqiladi va tegishli jazo qo‘llaniladi.

XULOSA:

Amaliyotchi psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o‘ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo‘ladi. U o‘zida ishonch uyg‘ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza olishi zarur bo‘ladi. Demak bo‘lajak amaliyotchi psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o‘z ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin momalada bo‘lishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Григорович І.А. Введение в профессию “психолог”. М, 2004.
2. Карандашев В.Н. Психология: Введение в профессию. М, 2009.
3. Ковалева А.И. Носкова О.Г. Моя профессия психолог. МГУ, 2007
4. <http://textshare.tsx.org>
5. <http://www.mgimo.ru/filesserver>
6. <http://www.ssu.runnet.ru>